



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

## **YOSH KOMPOZITOR AKMAL SAFAROV MUSIQIY TAFAKKURI**

**Mohina ABRAROVA,**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi  
“Musiqqa tarixi va tanqidi” kafedrasida dotsenti,  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Musiqashunoslik ilmining tadqiqot markazida kompozitorlik ijodiyoti turadi. Ayniqsa, so‘nggi yetti asr davomida Yevropa davlatlarida, XX-XXI asrlarda esa, O‘zbekistonda shakllanib, rivojlanayotgan kompozitorlik ijodini tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi bejiz emas. Biroq, bu sohaning o‘rganilmagan, yohud kam o‘rganilgan bir sohasi borki, bu kompozitorlarning ijodiy tafakkuri mohiyati masalasidir. Musiqashunos olim, ustoz, san’atshunoslik fanlari doktori, professor O.A.Ibrohimov bilan bo‘lgan suhbatlarimizda, olim bu borada quyidagi fikrlarni bildirgan edilar - “Tafakkur mohiyatini musiqashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish va tadqiq etish, o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, bunda nashr etilgan kompozitorlarning qalamiga mansub materiallardan (monografiya, darslik, qo‘llanma, maqola va b.lardan) tashqari, ular bilan bevosita jonli suhbatlar o‘tkazish foydalidir”<sup>45</sup>. Vaholanki, musiqa yaratuvchilarining merosini to‘la to‘kis tahlil va tadqiq etish, ijod mahsullariga xolisona baho berish uchun musiqiy madaniyatni idroklash, tafakkur masalalarini o‘rganish nihoyatda dolzarb va o‘rinlidir [1]. Ustozni xotirlar ekanmiz, mazkur maqola ular bergan o‘git va maslahatlar samarasi sifatida talqin etilishi mumkin. Zero, biz musiqiy tafakkur masalasini yosh ijodkor faoliyatida izchil o‘rganish va tadqiq etishni maqsad qildik. Shu o‘rinda, yosh umidli kompozitor, mohir fortepiano ijrochisi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zosi, Respublika va xalqaro tanlovlar sovrindori, davlat mukofoti sovrindori, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi Akmal Safarov bilan uning musiqiy tafakkuri borasidagi fikrlarini jamladik.

A.Safarov bolaligidan musiqaga katta mehr qo‘ygan. Uning musiqiy qiziqishlari shakllanishida dastlab, ota-onasi, keyinchalik musiqa maktabidagi ustozlari katta ta’sir ko‘rsatishgan. Ayniqsa, Qashqadaryo folklori, milliy urf-odat va an’analari bolakayda unutilmas xotiralarni qoldirgan. Keyinchalik, konservatoriyaga zamonamizning atoqli kompozitori, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, professor R.Abdullayev sinfiga o‘qishga kirgan davrida ham bolalikdagi olgan taassurotlari, yangidan-yangi mavzulardagi asarlarni yaratishga ilhomlantirgan. Akmal Safarov kompozitorlik sirlarini o‘rganar ekan, dastlab bir ovozli monodiyaning ichki tuzilish qonuniyatlarini sinchkovlik bilan o‘zlashtirdi. Keyinchalik, ko‘p ovozli asarlarni yaratishga jazm etdi. Bu haqida u quyidagilarni gapirib berdi: - “Ustozim R.Abdullayev kompozitsiya bo‘yicha eng birinchi darslarida menga bir necha kuylarni (bir ovozli) notaga tushurib kelishni vazifa qilib berdilar. Avvaliga katta qiziqish bilan bunga yondoshdim. Forteplano bo‘limini tugallaganim uchun chap qo‘lim beixtiyor akkordlarni bosishga, musiqaga yanada

---

<sup>45</sup> Muallifning O.Ibrohimov bilan o‘tkazgan suhbatidan. - T., 2018.

to'liqlik va garmonik joziba berishga oshiqardi. Aslida, bir ovozli kuy yaratish ham oson emas ekanligiga o'sha paytlarda yanada amin bo'lgandim"<sup>46</sup>. Bu borada musiqashunos A.Kutlichurina quyidagilarni yozgani diqqatga sazovor: - "O'zbekiston kompozitorlari musiqasi tafakkurning bir-biridan mutlaqo boshqa ikki turi - monodik va ko'p ovozli sintetik birgalikda rivojlanadi. Kompozitorlar ladointonatsion, metro-ritmik, formulali, strukturaviy qonuniyatlar darajasida namoyon bo'ladigan tafakkurning monodiya tamoyillaridan foydalangan holda ko'p ovozli opuslarni yaratishga intiladilar" [2]. Aslida, yosh kompozitorlarimiz musiqa maktablarida Yevropa musiqasi asosida tarbiya ko'radilar. Milliy ohanglar esa, atrof-muhitdan, oiladan qalbga kirib, singib boradi. Shu sababli, dars mashg'ulotlarida Yevropacha janrlarni o'zlashtirib, milliy musiqaga asoslanish o'ta muhim hisoblanadi. Bu borada, A.Safarovning asarlarida milliylik ruhiyatini ufurib turishining ham sabablaridan biri, bolalikdagi taassurotlar, desak, mubolag'a bo'lmaydi. A.Safarovning "Xay bola, bola" deb nomlangan Variatsiyasi yuqoridagi fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi [3]. Kompozitor ushbu asarda ikki cholg'u – royal va arfaning o'zaro suhbatini tinglovchilar e'tiboriga havola etadi. Pedaldan o'rinli foydalanish, mahoratli ijro asarning muvaffaqiyatli talqinini ta'minlaydi.

Ikki fortepiano uchun "Oqsaroy", Torli kvartet uchun "Vals", kamer ansambl skripka, violonchel va fortepiano uchun "Harakat", misli damli cholg'ular uchun "Imitation" kabi asarlarda kompozitorning G'arb va Sharq an'alarini o'zlashtirgani, mustaqil tafakkurini namoyon etgan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yevropa janr va shakllarini o'zlashtirgan, A.Safarov o'z ijodida milliylikni bo'rttirib ko'rsatishga katta qiziqish bildiradi. Ayniqsa, talabalik davrlarida muxtasham maqomlar uning qalbini alohida zabt etgan. Bebaho merosimizdan asarlarida bamisli zargar sifatida foydalanishni maqsad qilgan, A.Safarov maqomlar asosida bir qator mualliflik asarlarini yaratishga muvafaq bo'ldi va tinglovchilar olqishini qozondi. Bu kabi asarlarga kompozitorning Birinchi Sonata, Birinchi Simfoniya, "Nasri Segoh" asosida Ikkinchi fortepiano "Trio" kabi asarlarini kiritish mumkin. Maqomlarni kompozitorlik ijodida qo'llanilishi ijodkorga katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu ma'suliyat va xalq oldidagi burchini A.Safarov to'laqonli angelaydi. "Kompozitor doimo ijodiy izlanishda bo'lishi zarur. Ustozim R.Abdullayev ham hamon izlanishdalar. Shundagina yangi asarlar paydo bo'ladi" - deydi, biz bilan suhbatda A.Safarov. Bugungi kunda A.Safarov ijodining gullagan davri. U tinimsiz yangi asarlar ustida izlanishlar olib borib, davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib kelmoqda. Jumladan, 2015-2016-yillarda bo'lib o'tgan "Ijodimiz senga, Vatan" nomli yosh kompozitorlar Birinchi Respublika tanlovida ishtirok etib, ikki marotaba 1-o'rin sohibiga aylangan. Qozog'istonda bo'lib o'tgan "XXI asr iste'dodlari" yosh kompozitorlar xalqaro tanlovi (1-o'rin, 2018), Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasida bo'lib o'tgan "Kazan-Music" Beshinchi xalqaro ijrochilik tanlovi (1-o'rin, 2021), "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Birinchi Respublika qo'shiqlar tanlovlari (3-o'rin, 2021) g'olibi, Bundan tashqari, u turli miqyosdagi yosh kompozitorlar respublika va xalqaro festivallarning tashkiliy qo'mitasi a'zosi va ishtirokchisidir, 2017-yilda magistraturani katta muvaffaqiyat

---

<sup>46</sup> A.Safarov bilan o'tgazan suhbatimizdan. - T., 2023-yil avgust.

bilan tamomlab, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining tayanch doktoranturasida (PHD) erkin izlanuvchisi sifatida o‘qishni tamomladi. Hozirgi kunda u O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida “Yosh ijodkorlar bilan ishlash sho‘basi” bosh mutaxassisi lavozimida ishlab kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Аббарова М. Узбекская композиторская мысль о проблемах современного музыкального творчества. Азербайджан, Баку. 2022. 133-136 с.

2. Kutlichurina A. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kompozitorlari ijodining an’anaviy va zamonaviy musiqiy tafakkuri faktura kesimida// San’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2022, 47 b.

3. Сафаров А. Особенности процесса синтеза Западной формы и Восточного мелоса на примере анализа авторских вариаций на тему узбекской народной песни “Хай бола, бола” Ж. Проблемы науки и современного образования. Россия, - Москва. 2020.

## **QORAQALPOQ XALQ MILLIY MEROSI BAXSHICHILIK SAN’ATINING RIVOJIDA G.TILEUMURATOVNING TUTGAN O‘RNI**

**T.Q. DAULETBAYEV,**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali  
“Umumkasbiy va ishtimoiy fanlar” kafedrasini mudiri.*

*Annotasiya. Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalq milliy merosi baxshichilik san’ati rivojlanishi va G.Tileumuratovning ijodi va uning baxshichilik san’atiga qo‘shgan hissasi haqida bayon etilgan*

*Kalit so‘zlari: Baxshi, baxshichilik, musiqa, milliy meros, milliy asbob, ansambl, “Muqalles” ansambli, dutor, dutor sozandachiligi.*

Xalqimizning milliy o‘zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san’ati atoqli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o‘tib kelmoqda. Mustaqillik yillarida milliy o‘zligimiz qayta tiklanib, so‘nggi yillarda esa bu madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda. O‘zbekistonning XIX-XX asrlar madaniyati tarixida ko‘plab baxshi shoirlar nomlari qayd etilib, ularning ko‘plariga haykallar o‘rnatilgan, kuylagan doston, epos, termalari tasma, plastinka va to‘plamlarda nashr etilgan. Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev PQ-4320-son Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori Qoraqalpoq milliy baxshichilik san’atining rivojlanishiga salmoqli ta’sirini o‘tkizib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalq milliy baxshichilik san’ati XV-XVI asrlarda paydo bo‘lib, shu davrgacha ikkiga – Musa va Su’yew baxshichilik maktabi bo‘lib o‘rganilgan. Lekin so‘nggi yillarga kelib ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasida baxshichilik maktabi Aqimbet, G‘aripniyaz, Arzi va Qutim baxshichilik maktablariga bo‘linib o‘rganilmoqda.

Aqimbet baxshining shogirdi Musa, Musa baxshining shogirdi Tileumurat, Tileumurat baxshining o‘g‘li Genjebay Tileumuratov 1929-yil Mo‘ynoq tumanida